



YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

2025-yil yanvar-sentabr


- I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
- V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **24 645,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda **8,4 %** ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi **1,9 %** ga yetdi.

YAHM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-sentabr



YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan **110,9** % ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – **115,2** % va xizmat tarmoqlarida – **109,4** % qayd etildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indekslari




II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2024-yil yanvar-sentabr	2025-yil yanvar-sentabr	
YAHM - jami	20 489,7	24 645,9	108,4
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 118,4	23 990,8	108,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 135,1	6 937,5	105,4
sanoat	5 959,8	7 424,0	108,1
qurilish	1 353,1	1 826,2	130,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 929,6	2 294,3	110,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	706,6	889,4	112,5
boshqa xizmat tarmoqlari	4 034,2	4 619,4	104,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	371,3	655,1	110,9

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **105,4 %**, sanoatda – **108,1 %**, qurilishda – **130,7 %**, xizmatlar sohasida – **106,9 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **110,1 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqa **112,5 %**, boshqa xizmat tarmoqlarida **104,4 %** dan iborat bo'ldi.

YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, yanvar-sentabr
(%,da)




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **97,3 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **2,7 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **28,9 %** ni, sanoat tarmog'i **30,9 %** ni, qurilish **7,6 %** ni va xizmatlar sohasi **32,6 %** ni tashkil qildi.

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, yanvar-sentabr

Quyida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 310,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,6 % ga yuqoridir.




IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan, %da)

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 16 610,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 13 351,1 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,2 % ni (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 66,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.





V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soni bo'yicha demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)